

XURSHID DO‘STMUHAMMADNING “JAJMAN” HIKOYASIDA RAMZIYLIK VA IJODKOR MAHORATI

Pormonov Fayozbek Raxmonberdi o‘g‘li

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Samarqand filiali filologiya fakultiti 2-kurs talabasi

Azimidin Nasirov

Ilmiy rahbar: professor:

Anatatsiya: *Iste’dodli adib Xurshid Do‘stmuhammadning “Jajman” hikoyasida ramziylikning badiiy talqini tahlilga tortilgan. Hayot voqeligini ramziy va majoziy talqin asosida, davrning murakkab qirralarini talqin etilganligiga diqqat qilindi. Asarda ramziy obrazlar orqali inson ruhiyatining chuqur qatlamlari ochib berilganligi asoslangan. Jajman obrazi orqali muallif insoniyatdagi salbiy holatlar, nafs va oʻzlikni falsafiy-estetik yondashuv bilan aks ettiradi. Hikoyadagi obrazlar talqini, timsollar, diniy va mifologik kontekstda yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *ramziylik, ramz, ramziy obraz, jajman, nafs, timsollar, Zardusht, Axraman, Axuramazda.*

СИМВОЛИЗМ И ТВОРЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО В РАССКАЗЕ ХУРШИДА ДУСТМУХАММАДА «ДЖАЖМАН»

Пормонов Фаёзбек Рахмонберди огли

Ташкентский международный университет имени Кимё,

Самаркандский филиал филологического факультета студент 2-курса.

Азимидин Насиров

Научны руководитель: профессор

Аннотация: *Анализируется художественная интерпретация символизма в рассказе «Джаджман» талантливого писателя Хуршида Дустмухаммада. Обращается внимание на то, что реальность жизни интерпретируется на основе символической и образной интерпретации, а также на сложные аспекты эпохи. Это основано на том, что произведение раскрывает глубинные слои человеческой психики через символические образы. Через образ Джаджмана автор философски и эстетически отражает негативные ситуации, похоть и слабость человечества. Интерпретация образов в рассказе, символов, рассматривается в религиозно-мифологическом контексте.*

Ключевые слова: *символизм, символ, символический образ, страсть, душа, символы, Зороастр, Ахрам, Ахурамазда.*



SYMBOLISM AND CREATIVE SKILL IN KHURSHID DOSTMUHAMMAD'S STORY "JAJMAN"

Pormonov Fayozbek Rakhmonberdi ogli

Tashkent International University of Chemistry

Samarkand Branch Faculty of Philology 2nd year student

Abstract: *The artistic interpretation of symbolism in the story "Jajman" by the talented writer Khurshid Dostmuhammad is analyzed. Attention is paid to the fact that the reality of life is interpreted on the basis of symbolic and figurative interpretation, and the complex aspects of the era are interpreted. It is based on the fact that the work reveals the deep layers of the human psyche through symbolic images. Through the image of Jajman, the author reflects the negative situations, lust and weakness of humanity with a philosophical and aesthetic approach. The interpretation of images in the story, symbols, is covered in a religious and mythological context.*

Keywords: *symbolism, symbol, symbolic image, passion, soul, symbols, Zoroaster, Akhram, Ahuramazda.*

O'zbek hikoya janriga o'z hissasini qo'shib kelayotgan adiblardan biri Xurshid Dostmuhammaddir. Yozuvchi o'z asarlarida ramziylik va ramziy obrazlarni mahorat bilan talqin etadiki, bu orqali ma'lum davr muommolari va ruhini yaqqol ochib berishga qaratilganligini anglash mumkin. Adibning bir qator katta-kichik asarlarida ramziylik, majoziylik birlamchi vazifani bajaradi. Ana shu kabi asarlaridan biri "Jajman" hikoyasidir. Adib yana jumboqli hikoyalar yozishni ma'qul ko'radi.

Jahon adabiyotida o'ziga xos talqin xususiyati bo'lgan ramziylik va majoziylik asosida hayot, inson, badiiy obraz mujassamlashganligini ham alohida qayd etish lozim. Hikoyada nima uchun jajman degan savolga voqealar silsilasidan, falsafiy mushohada asosida javob anglashiladi. Shuning uchun Jajmanni har kim o'z tafakkuridan kelib chiqqan holda tasavvur qiladi.

Ramz (arabcha-ishora qilmoq)- voqelikni badiiy aks ettirishning shartli usuli, badiiy shartlilik shakllaridir. Ramz majozdan farq qilib, mazmuni obrazlar qurilishi bilan bog'liq bo'ladi va ko'p ma'noliligi bilan ajralib turadi.

Yozuvchi hikoyasini bozor epizodi bilan boshlashi ham bejizga emas. Unda o'ziga xos ramziy ma'no, falsafiy mushohadaga undovchi talqinlar mavjud. Bozor bu siz-u biz yashayotgan olam, "bozor ichidagi bodomfurushlar, mayizfurushlar, pistafrushlar esa siz-u bizmiz". Ha demay tong otadi. Olam nurga to'ladi... Tim darvozasi lang ochiladi, g'ala-g'ovur boshlanadi... Tumanot toshib-shoshib oqib kiradi, oqib chiqadi... sotuvchi keladi, xaridor keladi, bekorchi keladi... chumoli bo'lib keladi... chumoli bo'lib ketadi... oyoqlar tinmaydi, qo'llar tinmaydi, og'izlar tinmaydi... kiraveradi - chiqaveradi, kiraveradi - chiqaveradi... olayotgan pulim deydi, sotayotgan molim





deydi... Tirikchilik bani bashaming tumshug'idan jilov o'tqazib yetovga soladi... "Bozor" deya atalmishtovaga solib aylantiradi, aylantiraveradi [1,205-bet].

Xurshid Do'stmuhammad bu epizod bilan insonlarning dunyoga kelishini, dunyodan ketishini va shu kelish-ketish o'rtasida insonlarni yashash uchun kurashlarini, mehnatlarini, o'z-o'zlari bilan, o'z yumushlari bilan ovvora bo'lishlarini, taqdir esa ana shu kelish-ketish oralig'idagi vaqtda insonlarning boshiga turli xil sinovlar yo'llashini mohirlik bilan tasvirlaydi. Yozuvchi yana bir o'rinda insonlar tirikchilik yo'lida kurashar ekan ba'zan gunoh va sovobni, oxiratni unitib qo'yishiga qaysidur ma'noda ishora qilib o'tgandek bo'ladi guyo. "Hamma o'zi bilan o'zi ovvora... tirikchilik tashvishi... sotish, sotish, sotish... uyum - uyum pista, bodom, turshak, mayizni sotish, pulga chaqish dardida bari" [1, 205-ber].

Adib o'z hikoyasida Zardusht bobo obrazini shunchaki kiritmadi. Unda ham o'ziga xos ramziylik bo'lib, bu obraz yozuvchining badiiy niyatini ochishga, hikoya mazmunini to'liqroq ochib berishga xizmat qiladi. Adib Zardusht ismi orqali, birinchidan, nafs bilan kurashish qanchalik og'ir bo'lmasin baribir ezgulik g'alaba qozonishini ta'kidlasa, ikkinchidan, nafs balosi bashariyat uchun yangilik emas, uning ildizlari mana shu Zardusht kabi qadimiy demoqchi.

Hikoyada Zardusht bobo yagona e'tiqodli inson sifatida tasvirlanadi. "Zardusht bobo rastasi yoniga to'shalgan ko'rpachaga obdon joylashib cho'k tushayotib, bir narsadan xavotirlangandek: "O'zing madadkorsan, Axuramazda... "dedi shivirlab" [1, 205-bet]. Hikoyadagi Zardusht bobo obrazi zardushtiylik dinini insonlar o'rtasida keng yoyishga xizmat qilgan Zardushtdir.

Inson Qabihlik-u yomonliklarni, nafsni va uning orqasidan kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarni, illatlarni ko'ra olish uchun pok qalbli, e'tiqodli bo'lishi kerakligiga ishora qilmoqda yozuvchi. Zardusht bobo ham shunday insonlar sirasida bo'lib Jajmanni (nafsni) ilk bor u ko'radi va hikoya o'rtalarida Jajmanni taqdirini ham u taxmin qiladi. Zardusht bobo hikoyada insonlarni nafsdan, uning orqasidan kelishi mumkin bo'lgan oqibatlardan ogohlantirmoqchi bo'ladi, ammo uning gaplarini hech kim eshitmaydi va anglamaydi.

"Zardusht boboning nazarida timdoshlari hoziroq oyoqqa turadiyu anavi maxluqni tutib tilka pora qiladigandek, supirib - supirib timdan chiqarib tashlaydigandek edi, timning burchak-burchaklariga urilib-urilib qaldirab qaytgan boboning ovozi hech kimning qulog'iga kirmadi" [1, 207-bet]. Adib bu epizotda inson nafsga berilayotganini o'zi anglamay qolishi mumkinligiga ishora qiladi. Hikoyada voqealar rivojlanib borar ekan, syujetning bir o'rnida Zardusht bobo tushi tasvirlanadi.

Xurshid Do'stmuhammad bu tush tasviriga ham bir ramziy ma'no joylagan, nazdimda. Zardusht bobo tushida Otash momosini (Otash - olov- zardushtiylik dinida hayot ramzi) moviy ko'z dev hovuchida olib ketadi. Uyg'onganida momosi o'lib qolganini ko'radi. Bu tushda ajdodlar sabog'ini unitish, o'zligini unitish, nafsga qul bo'lishdir, degan ma'no anglashiladi.





Hikoyada Jajman ramziy ma'noda nafs hisoblanadi. Xurshid Do'stmuhammad hikoyada hech qaysi obrazni portretini chizmaydi, lekin Jajmanning portretini Zardusht bobo tilidan mukammal tarzda chizadi. "Bobo shundagina bu g'aroyib jondorning basharasini aniq - tiniq ko'rdi - maxluqning ko'zi, qulog'i, tumshug'i dam sichqonnika, dam tulkinika o'xshab tinimsiz tovlanar edi... "Olmoxon-ku!" deb yubordi ichida bobo va shu zoxoti boshini chayqab "Tulki minan sichqondan tarqagan ko'rinadi", degan xayolga bordi, bir pas jim qolgach esa, "Qorni kengiruniki" - dedi pichirlab, lekin maxluq qaddini rostlab ikki oyoqlab yurayotganini ko'rib, "Yo odamdan tarqaganmikan?! "deb o'yladi va beixtiyor shak keltirib qo'ygandek shoshilib yoqasiga tupladi" [1,208-bet].

Yuqorida ko'rganimizdek Zardusht bobo uni ko'rib hayron qoldi uni nimaga o'xshatishni bilolmay qoldi. Bu epizotda Jajmanning bir ko'rinishda hech nimaga o'xshamasligi, bir ko'rinishda esa hamma narsaga o'xshashi nafs har bir jonda bo'lishiga ishoradir. Yer yuzida biror tirik jon yo'qki ularning nafs bo'lmasa.

Faqat bir toifa insonlar nafsini jilovlay olishadi, bir toifa insonlar esa uning asiri bo'lishadi. "Maxluq ko'rindi deguncha, ma, Jajman, ma!" deb unga mayiz, pista, ying'oq tashlaydiganlar chiqdi.

Jajman hech kimdan tap tortmas, xash - pash deguncha "Xayr – sadaqa"ni yeb - xalta - solib bitirar, turshakni goh danagi bilan yutib yuborar, goh qarsillatib chaqib mag'zini chapillatib chaynar edi" [1, 210-bet]. Yozuvchi bu epizotda nafsga berilgan insonlarga urg'u berib, ular qancha urinishsalar ham nafsni qondirolmassliklarini, harakatlari besamar ketishayotganini mohirlik bilan ramziy ma'noda tasvirga oladi. Hikoyada Jajman salbiy obraz sifatida tasvirlanadi.

Jajman goh bodom, pista, mayizni yeb qochib qolar, goh pullarni o'g'irlab qochib qolar edi. Lekin bir tarafdin u insonlarni ogohlantirgandek ham bo'ldi. Bu esa uning u yoki bu darajadagi ijobiy tomonidir. Insonlar aynan shu Jajmanning ziyoni ortib borayotgani tufayli uni o'ldirishmoqchi bo'lishadi. Adib inson va nafs o'rtasidagi kurashni, Jajman va tim savdogarlarining kurashi orqali ramziy tasvirlaydi. Savdogarlar Jajmani o'ldirishga harakat qilishadi. "Pista uyimini sovrayotganida mushtdek g'isht parchasi uchub kelib pistani tuproqdek to'zitib yubordi, Jajman shunda ham talvasaga tushmay, g'oyib bo'ldi". (1, 214 - bet). Tim savdogarlarini boshqa vaziyatlarda ham juda ko'p marotaba Jajmani o'ldirishga harakatini kuzatamiz, ammo ko'p hollarda Jajman g'olib bo'lar edi. Bu orqali Xurshid Do'stmuhammad inson va nafs o'rtasidagi kurash oson bo'lmasligiga, nafsni jilovlash, uni boshqarish oson ish emasligiga ishora qilmoqda. Lekin harakat qilsa hamma ishni uddasidan chiqish mumkin.

Hikoyadagi tim devori bu yaxshilik va yovuzlik o'rtasidagi chegara hisoblanadi. Undagi shovqin hikoya boshida sustroq eshitilar, hikoya davomida esa bu ovoz kuchayib borar edi. "Yerga qoqilgandek tik turib butun vujudi quloq bo'lib tingladi :Gurs... gurs... gurs... Boboga yer osti gursillayotgandek tuyildi, beixtiyor



oyoq ostiga razm soldi, quloq soldi... yo'q, gursillayotgan - odoqdagi tim devori ekanligi aniq edi..." (1, 214 - bet). Bu devor Axuramazda va Axraman o'rtasidagi chegara hisoblanadi. Axraman tim devorini mushtlar uni buzib bu dunyoni ham zulmatga aylantirishmi istar edi. Dunyo yaralibdiki unda ezgulik va yovuzlik o'rtasida jang bo'ladi va har safar oxir-oqibat ezgulik tantana qiladi. Bu hikoyadagi yovuz ramziy ma'noda Jajman bo'lsa, ezgulik uni jazolashga harakat qilayotgan insonlardir.

Bozor ahli Jajmanni tutganlarida joni uzilayotgan holatda u tilga kiradi va shunday deydi: " Lo... kila!.. Lokil... la!..". Bu so'zlar aniq bir ma'no ifodalayotgani yo'q, lekin uni teskarisiga o'qisak "Alik ol " bo'ladi. Demak, Jajman: " Salom, men nafsman. Alik ol, tanishib qo'y " degani anglashiladi. Xuddi shu o'rinda yozuvchi so'z o'yini qilish orqali nafsni tushintirmoqda.

Bozor ahli ne ranj-u mashaqatlar bilan Jajmanni tutib o'ldirganlarida esa avvalgisidan ham kattaroq Jajman paydo bo'ladi. " Ana shunda qora tuynukdan bir bahaybat xovuch ko'rindi... Xovuchlar ichkariga suqilib kirdiyu, ulardan hozirgina bazur, ming bir azobda o'ldirilgan Jajmanga ikki tomchi suvdek o'xshash boshqa bir Jajman sakrab yerga tushdi, faqat u oldingisidan xiyla durkunroq - bo'yi ikki qarich edi... " (1,221- bet). Avvalgi Jajmanning bo'yi bir qarich edi. Bu bilan yozuvchi bir nafs qondirilsa, o'rnida undan hamm kattrog'i paydo bo'lishini, ezgulik va yovuzlik o'rtasida doim o'zaro kurashlar, janglar bo'lishini takidlamoqdi.

Xurshid Do'stmuhammad " Jajman " hikoyasida obrazlar talqini, ramziy obrazlar va ramziylik orqali ijtimoiy hayotdagi asosiy illat bo'lgan nafs buzuvchilikni va u orqali kelib chiqadigan boshqa illat va qabihliklarni yaqqol ko'rsatib berolgan. Biroq "Jajman" ning asl ma'nosi hali hanuz yozuvchining sof jumbog'i bo'lib kelmoqda. Yozuvchi bu hikoyasi orqali insonlar o'zlarini taftish qilishiga, shu kabi illatlarni tark etishiga davat qiladi. Agar inson bu illatlardan xalos bo'lmas ekan, uning taqdiri nima bilan tugashini yozuvchi hikoyada yaqqol ko'rsatib berolgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Xurshid Do'stmuhammad. Jajman. Qissa va hikoyalar to'plami. – Toshkent, "Sharq" nashriyoti-matbaa kontserining bosh tahririyoti, 1995.
- 2.Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent, 2019.